Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317991

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Иванов, П. П. (2019). Инновационные технологии *в аудиторской деятельности*. Издательство «Экономика», Москва 2019.
2. Петрова, М. В. (2020). *Цифровизация аудита: новые возможности и вызовы*. Журнал «Аудиторская практика», №3.
3. Сидоров, А. А. (2021). *Развитие сопутствующих услуг в аудите: тенденции и перспективы*. Издательство «Наука», Санкт-Петербург.
4. Кузнецов, В. В. (2018). *Модернизация аудиторской деятельности в условиях цифровой трансформации*. Журнал «Финансы и аудит», №7.
5. Смирнова, Е. Ю. (2022). *Стратегические направления развития аудиторских услуг*. Издательство «Профессионал», Москва.
6. Ҳасанов, Ш. (2017). *Аудиторлик хизматлари ва уларнинг ривожланиши*. Тошкент: Миллий Иқтисодий Институт.
7. Қудратов, А. (2018). *Ўзбекистонда турдош хизматлар: имкониятлар ва чегаралар*. Бухоро: Академик Нашр.
8. Рахимов, М. (2019). *Замонавий аудит: глобал тенденциялар ва инновациялар*. Самарқанд: Илмий Нашр.
9. Мирзоев, Н. (2020). *Рақамли трансформация ва аудит*. Тошкент: Ўзбекистон Электрон Китоблари.
10. Сидиков, У. (2021). *Бизнес ва аудит: янги замонавий ёндашувлар*. Тошкент: Халқ Ғуруҳи Нашр.

TADBIRKORLIK SUB’EKTLARINI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNI RIVOJLANTIRISH

Turg‘unov Xurshidbek Azizbek o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti
muhandislik iqtisodiyoti 4-kurs talabasi

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlikning o‘rni beqiyosdir. Shu boisdan ham so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni rivojlantirish va uning moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishiga katta e’tibor qaratilmoqda. Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida nafaqat ichki bozorni to‘ldirish, balki eksport salohiyatini oshirish, innovatsion g‘oyalarni joriy etish hamda hududiy rivojlanishga hissa qo‘shmoqda. Tadbirkorlik bugungi dunyoning

Published: 24.05.2025

Cite this article: Turg‘unov Xurshidbek Azizbek o‘g‘li (2025). Tadbirkorlik sub’ektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni rivojlantirish. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317991

© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

asosiy dinamikalaridan biri hisoblanadi. Buning bilan birga, tadbirkorlik sub’ektlari (masalan, korxonalar, tashkilotlar, va shaxslar) moliyalashtirish yo‘llarini takomillashtirishni talab qiladi. Bu moliyalashtirish yo‘llari, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun muhimdir. Bundan tashqari, aholi bandligini ta’minlashning muhimligi ham paydo bo‘ladi. Aholi bandligi, tadbirkorlikning samaradorligini, jamoatni o‘sishini va insonlarning hayot darajasini ta’minlashda katta ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda tadbirkorlik sub’ektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi tomonidan tadbirkorlik sub’ektlarining 46 mingdan ziyod loyihalariga 15 trillion so‘mdan ortiq miqdorda moliyaviy yordam ko‘rsatildi.

Respublikada tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash natijalariga ko‘ra 2024 yilning iyul oyida Ishbilarmonlik faolligi indeksi o‘tgan oyga nisbatan 16,0 foizga ortib, 1160 birlikni tashkil etishi, quyidagi komponentlar darajasidagi o‘zgarishlarga bog‘liq bo‘lgan:

2024 yil iyul oyida barcha turdagi faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar soni o‘tgan oyga (481 039 birlik) nisbatan 5 542 birlikka ortib, 486 581 birlikni tashkil etgan.

Yirik tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi korxonalar soni 7 taga oshgan.

Hisobot davrida, kichik korxonalar soni 387,138 tadan 392,681 tagacha oshgan (o‘sish 5 543 ta). Shuningdek, fermer xo‘jaliklari soni 90 141 tadan 90 133 tagacha (-8 ta) kamaygan. Yirik tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan sub’ektlar soni 3 767 tani tashkil etib, 2024 yilning iyun oyiga nisbatan 7 taga oshgan.

Tadbirkorlik sub’ektlarini moliyalashtirish yo‘llarini takomillashtirishning muhim jarayonlari, ularning muammolari va ularni hal qilish uchun qo‘llaniladigan istiqbollarni ko‘rib chiqamiz.

Tadbirkorning ushbu ishbilarmonlik tamoyillari uning ijodkorligiga asoslanadi. Aynan ana shu ijodkorlik Y.Shumpeter fikriga asosan, tadbirkorga boshqalar e’tibor qilmagan va bilmagan ishlarga e’tibor qilib, faoliyat yuritish imkonini beradi.

Ijodkorlik tadbirkorni ta’riflashda asosiy mezon bo‘ladi, ammo u har xil shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Tadbirkor boshqa ijodkor kishilar tomonidan amalga oshirilgan kashfiyotlar, topilmalardan qanday qilib samarali foydalanish mumkinligini biladi. Shu bilan birga u bu yangiliklardan haridorning qiziqishini uyg‘otuvchi yangi, ajoyib narsa ishlab chiqarish sohasida foydalanish yo‘llarini topa oladi.

Ammo kashfiyot va yangilik faqat tovar turining yangi tarkibiy qismini

yaratishda emas, balki tovar ishlab chiqarishni yangilash jarayoniga jalb qilishni talab qilmaydigan oddiyroq shakllarda ham namoyon bo‘ladi. Masalan, u tovar o‘ramining yangilanishi, an’anaviy tovarga yangi xususiyatlar va sifatlar berish ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin.

Tadbirkor faoliyatining boshqa tomonlarida ham kashfiyotchilik elementlarini qo‘llash mumkin. Masalan, u ishlab chiqarishning, mahsulotni sotishni boshqarishning yangi shakllarini topadi, sheriklik munosabatlarini o‘rnatadi, ishlab chiqarishning yangi texnologiyalaridan foydalanadi.

Tadbirkorlikning yana bir muhim xususiyati ishlab chiqarish jarayonida yangi g‘oyalarning amalga oshirilishi bozor tomonidan qanday qabul qilinishini oldindan ko‘ra bilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan qaraganda, yangilikni bozorda tadbiq etish va iste’molchining javobini bitta jarayonga birlashtira olish tadbirkor muvaffaqiyatining garovidir.

Ko‘pgina tadqiqotchilar jamiyatda tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchilar soni ko‘payib borayotganligini ta’kidlaydilar. Ma’lumotlarga ko‘ra, mustaqil faoliyat yurituvchi aholining 8-10% qismi tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi mumkin. Tadbirkorlik har qanday boshqa kasb kabi ishbilarmonlik sifatlarini talab qiladi.

Tadbirkor kishidan, avvalo, o‘ziga va o‘zining qobiliyatiga ishonish talab qilinadi. O‘ziga, o‘z kuchiga ishonmaydigan inson nafaqat tadbirkorlikka, balki har qanday sohada ham ishni oxirigacha olib borishga qodir emas.

Tadbirkorning muvaffaqiyatini belgilovchi keyingi shart – agressivlikdir. Bunda gap, birinchidan, tadbirkorga nimadadir birinchilikka ega bo‘lishlik ishonchini beruvchi, ikkinchidan, tadbirkorning aniq maqsadga qaratilgan harakatlarni bajarishida tashabbusni tortib olishga harakat qiluvchi agressivlik haqida ketayapti. Shunday qilib, bu o‘rindagi agressivlik amalda g‘oyalar, loyiha va tashabbusni tortib olish va uni tez amalga oshirishni bildiradi. Bunday agressivlik atrofdagilarga (hammadan oldin raqiblarga) to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarar keltirmaydi, u bevosita zarar keltirishi mumkin (agar birov qandaydir tovarni ishlab chiqarishda tashabbusni o‘z qo‘liga olsa, boshqa kishi bunday tovarni ishlab chiqara olmaydi, demak, tovar ishlab chiqarish bo‘yicha tashabbusni birinchi bo‘lib boshlagan tadbirkorning harakati u mo‘ljallagan daromadni olishiga imkon bermaydi).

Tadbirkor ko‘pgina hollarda o‘z jamoasi bilan harakat qiladi, shuning uchun tadbirkorlik g‘oyasini amalga oshirish jarayoniga samarali ta’sir qiluvchi jamoani yaratgandagina muvaffaqiyatga erishadi. Shu munosabat bilan tadbirkorning oldida murakkab muammolar turadi. Bular biznesning muvaffaqiyati uchun qanday ixtisosdagi mutaxassislar kerakligini, ular qanday sifatlarga ega bo‘lishlari zarurligini,

ularning tadbirkor shakllantirayotgan ruhiy muhitga kira olishlari mumkinligini aniqlash muammolaridir.

Xulosa shundan iboratki, agar ijtimoiy ishlab chiqarish nuqtai nazaridan tadbirkor faol sub’ekt rolida bo‘lsa, unda tadbirkorlik jarayonining o‘zi, uning samaradordigi va mazmuni nuqtai nazaridan iste’molchi faol rol o‘ynaydi va tadbirkor bu omilni inkor eta olmaydi.

Tadbirkorning shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari, imkoniyatlari va ishga doir sifatlari tadbirkorlikning harakatlantiruvchi kuchi bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi— O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar
strategiyasi to‘g‘risidagi PF-4947-sonli Farmoni. www.lex.uz.
2. Bryu S.L., Makkonnell K.R., Ekonomiks: kratkiy kurs. Perv. S 1- ang. izd. M.: INFRA - M 2015. 462 str.
3. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik, Toshkent.: ―Barkamol fayz media‖, 2017, 784 b.
4. Jo‘raev T., Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi (ko‘rgazmali va tarqatma materiallar). 1-tom, 2011, 332 bet. Jo‘raev T., Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi (ko‘rgazmali va tarqatma materiallar). 2-tom, 2013, 380 bet.
5. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti

ATROF MUHIT IFLOSLANISHI VA UNING SABABLARI. MAMLAKATIMIZDAGI ATROF MUHIT IFLOSLANISHI STATISTIK KO‘RSATKICHLARDA

So‘fiyeva Xusniya Soxibjonovna
TDIU Andijon fakulteti o‘qituvchisi
Kamoliddinov Ozodbek Ziyoyiddinovich
TDIU Andijon fakulteti
AI-70/23 guruh 2-bosqich talabasi
Tel: +998-(93)-001-30-41
E-mail; kamoliddinovozodbek1711@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada men hozirgi kundagi asosiy muammolardan biri bo‘lib kelayotgan atrof-muhit masalasini yoritib berishni o‘z oldimga maqsad qilib qo‘ygan holda maqola mavzuyimni “atrof-muhit ifloslanishi va uning sabablari.